

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi

Namangan viloyati xalq ta'limi boshqarmasi

Mingbuloq tuman xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik
ta'minlash va tashkil etish bo'limi

*45- sonli umumiy o`rta ta'lim maktabining
boshlang`ich sinf o`qituvchisi*

***Egamberdiyeva Go'zalxon**
Mahmudjonovnaning
boshlang`ich sinflar uchun*

NAMUNALI DARS ISHLANMALAR



Namangan

Ushbu dars ishlanma Mingbuloq tuman XTMMTvTE bo'limiga qarashli 45-maktabning 2-toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi Go'zalxon Egamberdiyeva tomonidan yozilgan bo'lib, boshlang'ich sinflar darslar jarayonida fanlararo o'xshash mavzularni integratsiyalab o'tish mumkin bo'lgan dars texnologiyalari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek ushbu dars ishlanma o'quvchilar bilim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi degan umiddamiz.

Muallif: G. Egamberdiyeva, Namangan viloyati Mingbuloq tumani 45-maktab o'qituvchisi.

Muharrir: M.Payziboyeva, Namangan viloyati XTB uslubchisi.

Taqrizchilar: S.Nuriddinova, Namangan viloyat PKQTMOI maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası mudiri.
I.Azimov, Mingbuloq tuman XTMMTvTEB uslubchisi
B.Shamsiyeva, Mingbuloq tuman 45-maktabning oliy toifali o'qituvchisi.

Ushbu dars ishlanma Namangan viloyati xalq ta'lim boshqarmasi _____kengashning 2013-yil ____ _____oyidagi ____sonli qarori bilan foydalanish uchun tavsiya etildi.

1-sinf

Mavzu: Qish

- a) ta'limiy maqsad:** o'quvchilarga qish faslida tabiatda, insonlar hayotida bo'ladigan o'zgarishlar haqida ma'lumot berish;
- b) tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarga tabiat ma'nzarasidan zavqlanishni, tabiatni e'zozlashni o'rgatish;
- d) rivojlantiruvchi maqsad:** tabiat o'zgarishlarini kuzatish, mustaqil fikr bildirish ko'nikmasini shakillantirish, badiiy ifodalash malakasini oshirish.

Dars turi: inergatsiyalashgan aralash dars, kichik guruhlarda ishlash

Dars usuli: aqliy hujm, ko'rgazmalik, test, muammoli ta'lim, tarmoqlar.

Dars jihozi: qish fasli tasvirlangan plakatli rasmlar, test, tarqatmalar, o'qish, atrofimizdagi olam darsliklari, vidioprojektor.

Darsning borishi: I. Tashkiliy qism.

Sinf 3-guruhga bo'lingan holda, doira bo'ylab o'tiradilar.

-Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar.

-Vaalaykum assalom, xurmatli ustoz.

-Mana o'lkamizda qish fasli xukmronlik qilmoqda. Tabit o'zgacha, sokin ko'rinishda. Shunday bo'lsada, qishning izg'irinli sovug'iga qaramay barchamizda ko'tarinki kayfiyat jo'sh urmoqda. Bugungi darsimizni yanada qiziqarli bo'lishi uchun musobaqa tarzida o'tkazamiz. Ayni paytda qish fasli bo'lganligi sababli guruhlarini qish oylari nomlari bilan nomlaymiz. 1-guruh "Dekabr", 2-guruh "Yanvar", 3-guruh "Fevral" nomini oladi. Marhamat qilib, guruhlar o'zlaringizga berilgan oylarni muhim sanalari haqida ma'lumot bering.

Har bir guruhdan bittadan o'quvchi turib tarif kiritadilar.

-Dekabr, qish faslining birinchi oyi. Havo sovuq bo'ladi. 5-dekabrda chilla kiradi. 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilingan. 31-dekabr yangi yil bayrami nishonlanadi.



-Yanvar, qish faslining 2-oyi. 1-yanvar kundan boshlab yangi yil boshlanadi va bolalarning ta'til kunlari ham shu oyda belgilangan.



-Fevral, qish faslining ohirgi oyi. Bu oydan sekin asta havo iliy boshlaydi. 9-fevral g'azal mulkning sultoni A. Navoiy tavallud topgan kun.

O'quvchilar aytgan ma'lumotlari yuzasidan monitorda va sinf taxtasida rasmlar namoish etiladi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

O'tilgan mavzu yuzasidan tarqatmali savollar orqali aqliy hujm o'tkaziladi.

1. "Suv-shifo" hikoyasini qahramoni kim?
2. Ota bola qayerga borishdi?
3. Qanday hashorat turlarini bilasiz?
4. Foydali hashoratlarni aytihg.

O'quvchilar tarqatilgan savollarga javob berishlariga qarab rag'bat kartochkalar bilan rag'batlantiriladi.

III. Yangi mavzu: Qish



O'quvchilarga qish fasli tasvirlangan muommoli rasmlar ko'rsatilib, ularda nima tasvirlanganligini 3 ta guruh a'zolari bayon etadilar. Rasm o'qish darsligidagi "Qish" she'ri asosida bo'ladi. Har bir guruh o'z taqdimotini o'tkazish orqali rag'bat kartochkalarni yig'ib boradi. Shundan so'ng o'qituvchi o'qish darsligidagi "Qish" she'rini ifodali o'qib beradi va mazmunini o'rgatadi .

Qish

Tursunboy Adashboyev

*Shudgor uzra uvullar,
Ayoz boba bo'roni.*

*Mehmon bo'ldi qish fasli
Oq choyshabga oranib...*

O'qituvchi o'quvchilarga sh'erni navbatma-navbat ifodali o'qib chiqishlarini aytadi va o'qituvchi kuzatib boradi.

Kompyuter monitorida o'quvchilarga qish fasli tasvirlangan harakatli rasmlar ko'rsatiladi Bu tasvirlar atrofimizdagi olam darsligidagi "Qish" mavzusi asosida bo'lib, unda rasmlar harakatli tarzda bo'ladi.



O'quvchilar nimalarni ko'rayotganliklarini dastlab guruh a'zolari bilan hamfikir holda umumlashtirib, bittadan o'quvchi taqdimot qiladi va rag'bat yig'adi. Bolalar taqdimotdan so'ng atrofimizdagi olam darsligidagi "Qish" mavzusini

o'qtuvchi aynan hozir ko'rgan tabiat manzarasi ekanligini tushintiradi va guruh a'zolari o'qib chiqadilar.

Qish

Qish keldi. Sovuq tushib, qor yog'di. Daraxtlar uyquga ketdi. Qishda kunlar qisqa bo'ladi. Hamma issiq kiyim kiyadi.

31-dekabrda yangi yilni kutib olamiz.

IV. Mustahkamlash: o'quvchilarni har ikki fan yuzasidan bilimlarini mustahkamlash uchun "Tarmoqlar" usulidan foydalanib, har bir guruhga topshiriq beriladi. Topshiriqni har bir guruh birgalikda alohida qog'ozda yozma ravishda bajaradilar. Bunda har bir o'quvchi o'z tushunganini yozishi kerak. Buning uchun ma'lum vaqt beriladi.



Har bir guruh yozganidan so'ng 1 tadan o'quvchi chiqib taqdimot qiladi. Qaysi guruh ko'p ma'lumot yozsa, o'sha guruh g'olib hisoblanadi va rag'batlantiriladi.

V. Umumlashtirish, baholash.

Monitorda har bir guruhga 2 tadan test savoli ko'rsatiladi. Oqituvchi o'qib beradi. Har bir guruh tezda javob berib, rag'bat to'playdi.

Masalan: 1) Qishning birinchi kuni?

- A) 1-dekabr B) 1-noyabr

2) 31-dekabrda qanday bayram nishonlanadi?

- A) Navro'z B) Yangi yil

O'qtuvchi mavzu yuzasidan umumiy xulosasini aytadi. Oquvchilar aytmagan ma'lumotlar bilan to'ldiradi. Shundan so'ng guruhlar ballari jamlanib, g'olib guruh aniqlanadi va ularni estalik sovg'alar bilan taqdirlaydi (ertak kitob, daftar, ruchka kabi). Dars davomida ishtirok etgan o'quvchilar ham baholanadi.

VI. Uyga vazifa: 1. "Qish" she'rini yod olish.

2. Qish fasli tasvirlangan rasm chizib kelish.
3. Tabiatdagi qish manzarasini kuzatish va o'z fikrini bildirish.

Mavzu: Kuz fasli.

Ta'limiy maqsad: kuz fasli, undagi oylar, kuzgi mevalar, sabzavot, poliz ekinlari, ob-havo, yig'im-terim haqida tushuncha hosil qilish;

Tarbiyaviy maqsad: tabiatni yaratgan ne'matlarini qadriga yetish, ularni nobud qilmay yigib olish kerakligini, insonlar mehnatini qadrlash kerakligini o'rgatish;

Rivojlantiruvchi maqsad: mustaqqil fikrlash, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish, og'zaki nutqni rivojlantirish.

Dars turi: integratsiyalashgan ta'lim, ko'rgazmalilik.

Dars usuli: bahs-munozara, aqliy xujm, ijod qilish, tarmoqlar.

Dars jihozi: kuz fasli tasvirlangan rasmlar, electron darslik, kampyuter, rasm daftar, qalamlar, o'qish, atrofimizdagi olam darsliklari, test savollari yozilgan tarqatmalar.

Darsning borishi. I. Tashkiliy qism.

Dars boshida o'quvchilar 3 ta guruhga bo'linib, doira bo'ylab o'tiradilar.

-Vatanimizning ulkan umidi bo'lgan, bilimga chanqoq aziz o'quvchilari, assalomu alaykum.

-Vaalaykum assalom hurmatli ustoz.

-Hurmatli o'quvchilar qani menga aytingchi ayni paytda qaysi fasl hukmronlik qilmoqda?

-O'lkamizda oltin kuz fasli o'z sepini yoygan. Shuning bilan birga barcha insonlar o'z mehnat hosilini yig'ish bilan ovora.

O'quvchilar fikr bildirganlaridan so'ng, guruhlariga nom beriladi. 1-guruh "Sentabr", 2-guruh "Oktabr", 3-guruh "Noyabr", kabi nomlanadi. Har bir guruhdan bitta o'quvchi turib, o'ziga berilgan nomni izohlaydilar.

"Sentabr" guruhi.

-Sentabr kuz faslining birinchi oyi. Bu oyda eng sevimli bayramimiz "1-sentabr Mustaqqillik bayrami" nishonlanadi. Sentabr oyida ob-havo issiq boladi. Paxta yig'im terimi boshlanadi...



“Oktabr” guruhi.

-Oktabr kuz faslining 2-oyi bo'lib, ushbu oydan boshlab havo salqin bo'ladi. Ba'zida yomg'ir yog'adi. Hosillarni yig'ish avj oladi. Aks holda yog'ingarchilikda qolib ketadi. 1-oktabr kuni o'qituvchilar bayrami nishonlanadi. 21-oktabr o'zbek tiliga Davlat maqomi berilgan kun.

“Noyabr” guruhi.

-Noyabr kuz faslining ohirgi oyi. Bu oyda eng muhim sana bo'lib, ya'ni 1991-yil 18-noyabrda O'zbekiston bayrog'i tashkil topgan. Noyabr oyida havo sovuq bo'lib, yog'ingarchilik ko'p bo'ladi...



Guruh a'zolari berilgan nomlarni izohlab borar ekan, o'qituvchi monitorda guruh nomlari bilan bo'liq rasmlarni ko'rsatib, to'ldirib boradi. O'quvchilar o'z guruhlarini nomlarini izohlaganlaridan so'ng, o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun “Aqliy hujum” o'tkaziladi. Monitorda savollar taqdim etiladi. Savollar o'tilgan mavzu “Kuz” matniga tegishli bo'ladi.


1. Mehrjon bayrami qaysi faslda nishonlanadi?
2. Kuzda qaysi rang ko'p uchraydi?
3. Kuzda qaysi qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadilar?
4. Kuzgi mevalarni sanab, ayting.

Guruh a'zolari savollarga og'zaki javob berib, rag'bat ballari yigadilar.

Yangi mavzu: Kuz fasli.

O'qituvchi yangi matnni o'qib berishdan oldin har bir guruhga oq varoq tarqatib chiqadi. O'quvchilarga “Oltin kuz-hosiling yuz” mavzusida muammo qo'yadi va kuz fasli to'g'risida bilganlarini “Tarmoqlar” usulidan foydalanib belgilangan vaqt ichida yozishni

aytadi. Ushbu topshiriqni bajarayotganlarida har bir bola o'z fikrini yozishi kerakligi aytib o'tiladi.



O'quvchilar uchun ushbu vazifaga ma'lum muddat beriladi. Vazifani bajarib bo'lgandan so'ng guruhlardan bittadan o'quvchi chiqib yozganlarini doskaga ilib taqdimot qiladi. O'quvchilar rag'batlantiriladi.

So'ng o'qituvchi o'quvchilarga o'qish darsligidagi Eson Rahimovning „Kuz fasli“ she'rini musiqa ostida ifodali o'qib beradi. She'r mazmuniga oid rasmlar monitorda korsatilib, tushuntiriladi.

Kuz fasli

Eson Rahimova

***Davra qurib turnalar,
Boshimizda aylanar.***

***Budir kuz fasli bazmi,
Ona yerga ta'zimi..***



-Kuz fasli hosil yig'iladigan fasl. Sentabr, oktabr, noyabr kuz fasli oylaridir. Kuzda tabiat oltin rangga kiradi. Mevalar, sabzavotlar, poliz ekinlari pishadi. Barcha hosilni yig'adi...

O'qituvchi she'rni o'qib, mazmunini rasmlar asosida tushuntiradi. Shundan so'ng oquvchilarga atrofimizdagi olam darsligidagi „Kuz-hosil yig'iladigan fasl“ matnini mustaqqil o'qib chiqishlari kerakligi aytiladi. Ularga vaqt beriladi.

Kuz-hosil yig'iladigan fasl

Kuzda Respublikamizda poliz ekinlari, shirin-shakar mevalar, qovun-tarvuzlar pishadi. Dehqonlar, bog'bonlar yetishtirgan hosillarini yig'ib-terib oladilar. Kuz fasli sentabr, oktabr va noyabr oylaridan iborat.

Bu paytda o'qituvchi o'quvchilarni bir-birlariga halaqit bermasdan o'qishlarini nazorat qiladi. Vaqt tugagandan so'ng o'quvchilarga „Venna diagramma“ dan foydalanilgan holda, ikkala mavzudagi asosiy tayanch so'zlarni va ulardagi bir-biriga o'xshash bo'lgan tayanch so'zlarni topishlari uchun topshiriq beriladi. Buning uchun vaqt belgilanadi.

<i>Kuz fasli</i>	<i>O'xshashligi</i>	<i>Kuz-hosil yig'ildigan fasl</i>
Mevalar pishadi Turnalar uchib ketadi Tog',qirlar oltin rangda Hosil yig'iladi	Mevalar pishadi. Oltin rangga kiradi Barcha mehnat hosillarini yig'adilar	Poliz ekinlari, mevalar, sabzavotlar pishadi. Dehqonlar, bog'bonlar hosillarini yig'adilar. Oktabr, sentabr, oktabr kuz oylari. Paxta teriladi. Yer sudgor qilinadi. Oltin rangga kiradi

Har bir guruhni belgilangan vaqt ichida yozganlarini bittadan guruh a'zosi chiqib o'qib beradi. Qaysi guruh ko'proq va tez bajarganiga qarab, rag'batlantiriladi.

Mustahkamlash:

Bugungi olingan bilimlarni tekshirish maqsadida har bir bolaga test savollar tarqatiladi. Savollar ikkitadan iborat bo'ladi. O'quvchilar javobni savolni o'ziga belgilab, ism-familiyalarini savol orqasiga yozadilar. O'qituvchi vaqt bermasdan test tarqatmalarni yig'ishtirib oladi.

1. Kuz fasliga qaysi oylar kiradi?

A) Mart, aprel, may. B) Sentabr, oktabr, noyabr.

2. Kuz faslida pishadigan mevalar qaysilar?

A) Behi, yong'oq, uzum. B) Olcha, gilos, o'rik.

Umumlashtirish, baholash.

Oqituvchi o'quvchilarni o'rgangan bilimlarini qay darajada ekanligini bilganidan so'ng, o'quvchilarni aytmagan ma'lumotlari haqida tushuncha beradi va darsni vulosalaydi. G'olib guruhni aniqlaydi va sovg'alar bilan taqdirlaydi (ertak kitob, qalam, ruchka, daftar kabi). O'quvchilarga ball qo'yiladi.

Uyga vazifa:

“Kuz fasli“ she’rini ifodali aytishni o’rganish. „Kuz-hosil yig’iladigan fasl“ matnini mazmunini o’rganish. Kuz faslini ifodalovchi rasm chizib kelish.

1-sinf

Mavzu: Vatan bu...

Ta’limiy maqsad: O’zbekiston, biz yashab turgan, kindik qonimiz to’kilgan joy-vatan ekanligini tishintirish;

Tarbiyaviy maqsad: vatan muqaddas ekanligini, vatan ravnaqi uchun, hissa qo’shish, uni sevib ardoqlash kerakligini tushuntirish;

Rivojlantiruvchi maqsad: O’zbekiston tabiati, iqlimi haqida tasavvur hosil qilish, ifodali o’qish malakasini oshirish, og’zaki nutqni va mustaqil fikrlashni shakllantirish.

Dars turi: integratsiyalashgan muommoli dars, guruhlarda ishlash.

Dars uslubi: Aqliy hujm, baxs-munozara, test, ko’rgazmalilik, axborot texnologiyasi.

Dars jihozi: O’zbekiston xududi, tabiati tasvirlangan rasmlar, video lavhalar, o’qish, atrofimizdagi olam darsliklari, tarqatmali savollar, electron darslik.

Darsning borishi: I. Tashkiliy qism.

O’quvchilar 4 guruhga bo’lingan holda, doira bo’ylab o’tiradilar. Sinf taxtasida o’tilgan mavzu va yangi mavzuga oid rasmlar bo’ladi. Dars o’quvchilar bilan salomlashish orqali boshlanadi. Siyosiy daqiqa uchun, o’quvchilarga kompyuter monitorida mustaqqillik sharofati tufayli erishilgan yutuqlar haqida, ramzlar (bayroq, gerb) ko’rsatiladi. O’quvchilarga 2013-yil “Obod turmush yili“ mavzusida ham lavha ko’rsatiladi.



O'qituvchi o'quvchilarga savollar beradi.

-Mustaqillik tufayli yurtimizda qanday obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda?

-Yurtimizda bog'u-roq'lar yaratilmoqda, chiroyli, ko'rkam binolar qurilmoqda.

-O'zbekiston qachon mustaqil bo'ldi?

-1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi mustaqil, deb e'lon qilindi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Monitorda o'tilgan mavzular bo'yicha 4 ta guruhga 2 tadan savol taqdim qilinadi. Har bir guruh tezda javob beradilar. Bergan javoblariga qarab rag'bat yig'ib boradilar.

1. Vatan deganda nimani tushunasiz?

2. O'zbekistonning tabiati haqida ayting.

3. Siz vatan uchun qanday xissa qo'shasiz?

4. Kompyuterda qanday ishlar amalga oshiriladi?

III. Yangi mavzu: Vatan bu....

O'quvchilarga turli O'zbekiston hududlari tasvirlangan rasmlar ko'rsatiladi. O'qituvchi bularning barchasi O'zbekiston xududi ekanligini tushuntiradi. Shundan so'ng "O'yla, izla, top" o'yini o'tkaziladi. Unga ko'ra guruhlar oldiga turli o'zbekiston hududlari tasvirlangan rasmlar qo'yilgan bo'lib, ularning nomlari adashtirib yozilgan bo'ladi. Guruh a'zolari bo'g'inlarni o'z o'rniga qo'yib, nomlarni tiklaydilar.



Samar - ro



Tosh - qand



Buxo - na



Farg'o - kent

Guruhlar bajargan ishlarini bittadan o'quvchi chiqib taqdimot qiladi va to'g'ri bajarganliklariga qarab rag'batlantiriladi. Shundan so'ng o'qituvchi "O'zbekiston" musiqasi ostida o'qish kitobidagi, "Vatan bu..." she'rini ifodali o'qib beradi. Uni mazmunini oquvchilar o'zlari nomlarini topgan O'zbekiston haqidagi rasmlar orqali tushuntiriladi. Manitorda she'rni ingliz tilidagi tarjimasi ko'rsatiladi. Dastlab

o'qituvchi o'qib beradi. So'ng barcha o'quvchilar bilan birga talaffuz qilishni o'rganadilar.

Vatan – bu...

Po'lat Mo'min

*Vatan deganim bu –
Yurak deganim,
Yurakka Vatanim
Kerak deganim...*


Motherland this...

*I say motherland this
It is a heart,
I say it nuds
To the heart...*

Shundan so'ng, o'quvchilar she'ri birma-bir ifodali o'qiydilar. O'qituvchi o'zbekiston tabiati, bog'-rog'lari, dalalari tasvirlangan rasmlarni ko'rsatib, atrofimizdagi olam darsligidagi "Biz O'zbekistonda yashaymiz" mavzusini tushuntiradi. Matn oldindan uyda mustaqil o'rganishlari uchun berilgan bo'ladi. Shuning uchun matnni bir marotaba ovoz chiqarmay o'qib chiqishlari uchun vaqt beriladi.



Shundan so'ng "Tarmoq" usulidan foydalanib O'zbekiston tabiati haqidagi bilgan ma'lumotni yozishlari aytiladi. Har bir guruhga bittadan oq qog'oz beriladi va guruh a'zolari birgalikda ma'lumotlarni yozadilar.



Eslatma: Topshiriqni har bir guruh a'zosi yozishi kerak.

Guruhlar topshiriqni bajargandan so'ng bittadan o'quvchi taqdimot qiladi va yozganlari to'g'riligiga qarab, rag'batlantiriladi.

IV. Mustahkamlash:

Guruhlar o'rtasida "Vatan bu" she'ri va "Biz O'zbekistonda yashaymiz" matnini uyg'unlashgan holda mazmunini aytish uchun "Kimning fikri chiroyli" musobaqasi o'tkaziladi. Bunda guruh a'zolari "O'zbekiston ona yurtim" mavzusida

hikoya qiladilar. Eng chiroyli fikr egasi yuqori ball bilan rag'batlantiriladi. Shundan so'ng o'quvchilarga monitorda quyidagi so'zlar ko'rsatiladi va uni birgalikda o'qituvchi yordamida inglizcha talaffuz qiladilar.

Vatan-Motherland Yurt-Fatherland Oila-family Poytaxt-capital

V. Umumlashtirish, baholash.

O'qituvchi o'quvchilar ayta olmagan fikrlari bo'lsa, shular haqida ma'lumot beradi va darsni umumlashtiruvchi xulosa qiladi. Shundan so'ng guruhlar yig'gan ballari jamlanadi, g'olib guruh aniqlanadi va mukofotlanadi. Dars jarayonidagi faoliyatiga qarab, o'quvchilarga ball qo'yiladi.

VI. Uyga vazifa: 1. "Vatan bu..." she'rini yodlash.

2. O'zbekiston tabiati tasvirlangan rasm chizib kelish. Rasmni "Biz O'zbekistonda yashaymiz" mavzusi asosida chizishlari tushuntiriladi.

1-sinf

Mavzu: Suv hayot manbai.

The Theme: Water is life recoeerfe.

Ta'limiy maqsad: suv hayot manbai ekanligini, suvsiz insonlar, tabiat yashay olmasligini o'rgatish;

Tarbiyaviy maqsad: suv havzalarini toza saqlash, suvni isrof qilmaslik kerakligini tushuntirish;

Rivojlantiruvchi maqsad: suv tabiat boyligi ekanligini, hayotda uning qadriga yetish kerakligini singdirish, og'zaki nutqni oshirish, tabiatni e'zozlash malakasini shakllantirish.

Dars turi: integratsion dars, kichik guruhlarda ishlash.

Dars usuli: "Zanjir", "Tarmoqlar", muaommoli vaziyat, aqliy xujum.

Dars jihozi: Daryo, ariqlar tasvirlangan tabiat rasmlari, "Orol" rasmi, elektron darslik, atrofimizdagi olam, o'qish darisliklari, kompyuter.

Darsning borishi: I. Tashkiliy qism.


Oquvchilar bilan tashkiliy qism o'tkazilgandan so'ng siyosiy daqiqa o'tkaziladi.. Bunda manitorda O'zbekistondagi tabiati, gerb, bayroq kabi rasmlar ko'rsatiladi. O'quvchilar qaysi ramzda suv tasvirlanganligini aytishlari lozim.

O'quvchi:

-O'zbekistonning gerbida suv tasvirlangan bo'lib, unda Sirdaryo va Amudaryo ifodalangan.

O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Guruhlar "Qor", "Muz", "Yomg'ir" nomi bilan ataladi va har bir guruh nomiga oid rasm guruh stolida bo'ladi. Ularning nomlari ingliz tilida yozilgan bo'lib, har bir guruhga nom berilganda nomlarini birgalikda inglizcha talaffuz qiladilar. Har bir guruhdan bittadan o'quvchi turib, o'z nomlarini ta'riflaydilar.

"Qor" guruhi.



Snow

Qor- bulutdan tushadi, sovuq hovodan hosil bo'ladi, erisa suv bo'ladi, qishda yog'adi...

"Muz" guruhi.



Ice

Muz-suvdan paydo bo'ladi, sovuq havoda paydo bo'ladi, qish faslida kop bo'ladi....

"Yomg'ir" guruhi.



Rain

Yomg'ir-suv bug'lanib osmonga chiqadi bulut ko'rinishida yog'adi. Yomg'ir yog'ganda daryo, ko'llar to'lib oqadi. Yomg'ir zaminimizni suvga to'yintiradi. Shu tufayli hosil mo'l bo'lad.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Har bir guruhga 2 tadan manitorda o'tilgan mavzu bo'yicha test ko'rsatiladi.

1. 14-yanvar qanday kun?

A) Mustaqillik kuni. B) Uatan himoyachilari kuni.

2. O'zbekistonda qaysi meva yetishtirilmaydi?

A) Banan B) Olma

Guruh a'zolari oldida javobni ko'rsatish uchun A, B hariflari yozilgan tablo bo'ladi. Guruh a'zolari to'g'ri javobni qo'lida ko'tarib aytadilar. To'g'ri javobni aytishlariga qarab, guruhlar rag'batlantirib boriladi. Rag'bat uchun bulut ko'rinishidagi rasmlardan foydalaniladi.

O'qituvchi:

-Aziz o'quvchilar darsimizni boshlashda siz davlatimiz ramzi bo'lmish gerbda suv borligini aytdingiz. Shuningdek guruhlariga berilgan nomlarni ham suv tashkil etadi. Sizlarga beriladigan rag'bat kartochkalar ham bulutlardan iborat bo'lib, bu bulutlarni to'plab suvsiz qolayotgan orol dengiziga bulutlar yordamida yomg'ir olib borasizlar. Demak siz orol muammosini oz bo'lsada o'z bilimlaringiz bilan hal etishga harakat qiling.

O'qituvchi oquvchilarga orol muammosi haqida ma'lumot beradi. Uni qurib qolgan rasmini bolalarga ko'rsatadi. Har bir guruh oldiga orol rasmi qo'yiladi. O'quvchilar olgan bulutlarni orol rasmi ustiga yelim bilan yopishtirib borishlari aytiladi.

III. Yangi mavzu: Suv hayot manbai.

O'qituvchi:

-O'quvchilar bugun biz siz bilan "Suv" haqida o'rganar ekanmiz, keling mavzumizga oid ayrim so'zlarni inglizcha talaffuz qilib borsak.



Suv-water




Bulut-clouds



Orol-island

O'quvchilarga "Suv nima?" muammo qo'yiladi. O'quvchilar guruhlarda "Tarmoqlar" usulidan foydalanib o'z munosabatlarini yozadilar. (Buning uchun har bir guruh a'zolari oldida bittadan bo'sh qog'oz bo'ladi.) Guruh a'zolari rasm ham chizishlari mumkin.



Bu topshiriq uchun 3 daqiqa vaqt beriladi va shu vaqt ichida o'quvchilar topshiriqni bajargan bo'lishlari kerak. Guruhlarda 1 tadan o'quvchi taqdimot qiladi va o'z guruhlariga rag'bat yig'adilar.

O'qituvchi suv haqida, uning xususiyatlari haqida o'quvchilar ayta olmagan ma'lumotlarni rasmlar orqali ko'rsatadi. Manitorda daryo, ko'llar oqishi harakatli tarzda ko'rsatiladi. Ularni nomlarini o'zbek va ingliz tilida o'quvchilar birgalikda talaffuz qiladilar.



Soy-Cnal



Daryo-River



Dengiz-Sea



Ko'l-Lake

O'qituvchi o'quvchilarga oldindan mustaqil o'qib kelishlari uchun "Suv shifo" matnini bergan bo'ladi. O'quvchilar uni mazmunini mustaqil o'rganadilar. Shu bois O'qituvchi atrofimizdagi olam darsligidagi "Suv-obihayot" matnni o'qib mazmunini bog'lagan holda tushuntiradi. Manitorda gaplarning inglizcha tarjimasi ko'rsatiladi va o'quvchilar birgalikda talaffuz qiladilar.

Suv-obihayot - Water is being-life

Suv bor joyda hayot bor. There is water, there is life. O'simliklar ham, hayvonlar ham, odamlar ham suvsiz yashay olmaydi. People, animals, plants can't live without water.

O'quvchilar matnni birma-bir ifodali o'qib chiqadilar. Shundan so'ng har bir guruh matn mazmunini "Zanjir" usulidan foydalanib taqdimot qiladi. Bunga ko'ra har bir guruh matn mazmunini aytayotganda guruh a'zolari bir-birini fikrini bog'lagan

holda davom ettirishi lozim bo'ladi. Fikrlarni uzviyligiga qarab guruhlar rag'batlantiriladi.

Dam olish daqiqasi: Bunda o'quvchilarni multfilm olamiga olib kiramiz. Har bir guruhga multfilm qahramonlari chizilgan rasmlarni kesib, bo'laklarga bo'lingan va aralashtirilgan holda beriladi. Guruh a'zolari birgalikda rasmni asl holiga tiklashlari va rasmdagi hayvon nomlarini aytishlari kerak bo'ladi. Qaysi guruh birinchi bo'lsa, o'sha guruh g'olib hisoblanadi.



Kesilgan holati



Butun holati

IV. Mustahkamlash.

Oquchilarga monitorda suv haqida maqol ko'rsatiladi. Guruh a'zolari uni mazmunini aytishlari kerak bo'ladi.

Suv zar- suvchi zargar.

Suvsiz hayot bo'lmaydi.

Har bir guruhdan bittadan o'quvchi chiqib taqdimot qiladilar. Shu tariqa guruhga rag'bat yig'adilar. Shundan so'ng manitorda guruhlarga alohidadan savollar taqdim qilinadi. Savollarga tezda og'zaki javob berishlari kerak bo'ladi. Savollar:

1. Suv nima uchun kerak?
2. Suv insonga qanday shifo bo'ladi?
- 3 Shifokor nega Ravshanga suzishga qatnashishni maslahat berdi?
- 4 Suvni qanday tejash kerak?

O'quvchilar javoblariga ko'ra rag'bat yig'adilar.

V. Umumlashtirish.

O'qituvchi o'quvchilarga mavzuni umumlashtirib, suvni foydali jihati, isrof qilmaslik yo'llarini o'rgatib xulosalaydi. Har bir guruh o'z oldidagi orol rasmiga qancha bulut (rag'bat) yig'ib orolga qancha foyda keltirganlari ballar hisobida jamlab, g'olib guruh rag'batlantiriladi va guruhlarga estalik sovg'alar beriladi (ertak

kitob, rangli qalamlar, ruchka, daftar kabilar). Shunihgdek o'quvchilarga ball qo'yiladi.

VI. Uyga vazifa. 1) "Suv-shifo", "Suv-obihayot" matnlarini o'qib, mazmunini o'rganish.

2) Suv haqida maqol, she'r o'rganish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'.Asqarova, G.Egamberdiyeva. Boshlang'ich ta'limda integratsiya. (O'quv qo'llanma). Namangan. 2007-yil.
2. 1-sinf. O'qish. Darslik. 2012yil.
3. 1-sinf. Atrofimizdagi olam. Darslik. 2012-yil.